

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U ASBOBLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA IJROCHILIKDA QO‘LLANILISHI

Zilola Inomova,
Jizzax DPI 1-bosqich magistri,
Ermat Fayzullaev, ilmiy rahbar
JDPI “Musika ta’limi”
kafedrasi dotsenti v/b, p.f.n

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida musiqiy ta’lim yo’nalishlarida cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlarining tashkiliy tuzilish xususiyatlari va musiqa asarlari ustida ishlashning o‘ziga xos metodik jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: musiqa, musiqa asari, parada, cholg‘u ijrochiligi, o‘yma rubob, pomir rubobi, yakka soz, kuy, qo‘shiq, ritm, raqs, ansambl, orkestr.

O‘zbek musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an’analari hozirgi kunda ham o‘zining badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Ayniksa, o‘zbek milliy cholg‘ularining paydo bo‘lish ildizlari juda ham qadimiydir. Tarixiy-ilmiy adabiyotlarda hamda musiqa madaniyatiga tegishli arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. O‘zbek xalqining madaniy bayram va an’analari qanchalik qadimiy tarixga ega bo‘lsa, cholg‘u sozlari undanda olisrok o‘tmishga taalluqlidir. Navruz, mexrjon, turli ommaviy bayramlar O‘rta Osiyo zaminida yashagan xalqlar tomonidan musiqa san’ati hamrozligida kuy, qo‘shiq, raqs hamda musiqiy o‘yinlar ijro etish bilan o‘tkazilgan.

Ajdodlarimizning qadimiy zardushtiy kitobi “Avesto” yozuvlarida xudolarga sig‘inish bilan bog‘liq bo‘lgan turli marosimlarda qo‘shiqlar ijro etish urf bo‘lgan. Tangriga bo‘lgan madhiyalar ko‘pchilik jo‘rligida kuylangan. Sekin-asta qo‘shiqlarga eng oddiy cholg‘u asboblari jo‘rligi kirib kelgan. Insoniyat tarixiy rivojlanishining ko‘p asrlik taraqqiyoti mobaynida mehnat qurollari takomillashuvi bilan cholg‘u sozlari ham mukammallashib borgan. Musika madaniyati tarixi haqidagi ashyoviy dalillar bizning ushbu masalaga oid tasavvurlarimizni o‘zgartirib yubordi. Mutaxassis olimlarning ta’kidlashlaricha, milliy cholg‘u sozlari tarixiy ildizlari bronza asriga borib

taqaladi. Eng qadimiy topilma sifatidagi nay cholgʻusini yoshi salkam besh ming yilga teng deb belgilandi. Ushbu soz yaxshi suyakdan nihoyatda mohirlik bilan ishlangan boʻlib, shuncha yil davomida yaxshi saqlanganligi bilan hayratlidir. Mazkur topilma ilmiy jihatdan juda ham qimmatbaho boʻlib, hozirda u Samarqanddagi madaniyat va sanʼat muzeyida saqlanmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari oʻrtasida ud sozi qadimdan keng tarqalgan va mashhur boʻlgan. Bu cholgʻu rasmi uy-joylar peshtoqlaridagi naqsh va hoshiyalarda koʻp uchraydi. Olimlarning ilmiy xulosalariga koʻra ud sozi Oʻrta Osiyoning eng qadimiy musiqa sozi boʻlib, keyinchalik u boshqa koʻplab mamlakatlar hatto Yevropa sanʼatiga ham kirib borgan.

Oʻrta Osiyoda qadimgi Xorazm ham madaniyat va sanʼat oʻchoqlaridan boʻlganligiga koʻplab dalillar mavjud. Xorazm hududidan topilgan koʻplab madaniy yodgorliklarda cholgʻu sozlari haqida kuplab ashyoviy dalil va maʼlumotlar uchraydi. Bizga yaqin boʻlgan xalqlar va mamlakatlar hududlaridan topilgan arfa cholgʻusini beshtasi - bu cholgʻuning vatani Markaziy Osiyo ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlangan. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarga doir tuqqiz torli burchaksimon arfa Xorazmning qoʻyqirilgan qalʼasidan topilgan sopolda tasvirlangan.

Oʻrta Osiyoda paydo boʻlgan koʻplab musiqa cholgʻular keyinchalik Yevropa mamlakatlarida mahalliy xalq musiqasi xususiyatlariga moslashtirilgan. Bu esa kuprok torli, puflama cholgulariga mosdir.

Agar tarixiy shart-sharoit boʻlmaganda Mavlono Yassaviy, Ismoil Al-Buxoriy, Muhammad At-Termiziy, Al Fargʻoniy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Al Farobiy, Rudakiy va koʻplab buyuk zotlar oʻzlarining qomusiy asarlari bilan jahonga dong taratmagan boʻlar edilar. Xuddi mana shu allomalar, xususan Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al Kindiy, Abdulqodir Marogʻiy kabi qator olimlarning tadqiqotlarida musiqa sanʼatining nazariy asoslari yoritib berildi. Buyuk olim Abu Nasr Farobiy musiqa haqida mukammal asar “Katta musiqa kitobi”, “Musiqa haqida soʻz” kabi asarlarida musiqa sanʼatining ilmiy-nazariy tamoyillarini yanada rivojlantirdi va oʻsha davr uchun yuksak

darajaga ko'tardi.

Ibn Sino o'z asarlarida ud soziga alohida e'tibor bergan. Uning asarlarida ud sozi va musiqa sozlarini ko'pgina nomlarini uchratish mumkin.

Farobiy va Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari sharqda musiqashunoslik ilmining muhim tarkibiy qismi sifatida musiqa nazariyasi, cholg'ushunoslikka asos solganligini, ayni paytda bu fan Yevropada ancha kech paydo bo'lganligini ta'kidlash joizdir.

Darvish Alining musiqiy risolasi O'rta Osiyo musiqa sozlarini o'rganishda qimmatbaho manba hisoblanadi. U o'z asarlarida mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijod va faoliyatiga keng to'xtalgan. Musiqiy risolaning beshinchi va oltinchi boblarida o'sha davrda qo'llanilgan xalq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Darvesh Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi hozirgi kunda ham cholg'u ijrochiligida qo'llaniladi. Ular tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobuz, va gijjak cholg'ularidir.

Musiqa san'atida cholg'u ijrochiligining turlari bilan nom qozongan ko'plab mashhur san'atkorlar taxallusi soz nomlari bilan yuritilgan. XV-accp va undan keyingi davrda yashab ijod qilgan Zaytuniy-g'ijjakiy, Shayx Axmadiy-qobuziy, Abdul Nosir-naychilar, Abubakr Rubobiy (X-asr) shular jumlasidandir.

XX-asrning 40-50-yillarida A.Petrosyans tomonidan o'zbek milliy cholg'ularini nota ijrochiligiga moslab rekonstruksiya qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. Professional cholg'u ijrochiligi talablari bunday o'zgarishni Musiqa san'ati rivoji uchun tabiiy hol sifatida quygan edi. Shundan so'ng boshqa milliy sozlar kabi g'ijjak sozining ham bir necha turlari vujudga keldi (orkestr ijrosiga moslashtirilgan).

O'zbek xalqining milliy cholg'u sozlari tarkibida rubob cholg'usi juda ham keng ommalashganligi, o'zining tuzilishi, shakli, ohangdorlik xususiyati, ixchamligi, ijrochilikda foydalanish uchun (ayniqsa musiqa darslarida) qulayligi bilan muhim o'rin tutadi. Rubob cholg'usining paydo bo'lish tarixi ham uzoq qadim zamonlarga borib taqaladi. Rubob cholg'usi O'rta Osiyo,

Sharq xalqlari madaniyatida ham keng o‘rin egallaydi. Rubob cholg‘usi uyg‘ur, tojik, avg‘on, turkman, ozarbayjon xalqlarining ham sevimli cholg‘usi sanaladi.

Maxmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarida keltirilgan ma‘lumotlarda IX-X asrlarda Rud, barbat, tanbur, qobiz, nay, surnay, qo‘shnay, tabl, daf, taburok, zir, chag‘ona, arg‘unchun, qonun, ud, cholg‘ulari keng ommalashgan va ular orasida rubob cholg‘usi ham eng mazkur va maqbul sozlardan hisoblangan. Bunga Abu Bakr Rubobiy nomli mashhur cholg‘uchining taxallusi rubob sozi bilan atalishi ham misol bo‘la oladi. Rubob sozining bir qator turdosh turlari xhm keng tarqalgan bunga avg‘on rubobi, tojik rubobi, Buxoro rubobi, Hindiston rubobi deb nomlangan cholg‘ularni misol keltirish mumkin. Rubob cholg‘usi musiqashunoslikda qashqar rubobi nomi bilan ham yuritiladi. Bu asbob asosan tut, chinor, o‘rik kabi qattiq yog‘ochlardan ishlanib o‘ta jozibali, jarangdor tovushga ega. Qadimgi o‘yma ruboblarning pardalari ichakdan eshilib, uning dastasiga bog‘langan. Ruboblarning tovushqatori diatonik joylashgan bo‘lib maqom va mumtoz kuylar ijro etilgan. 1939 yildan o‘zbek milliy cholg‘ulari rekonstruksiya qilinib, xromatik tovushqator tuzilishida, orkestr va nota yozuviga moslashtirildi. Shu tufayli rubobning yangi turi-rubob primaga ham asos solindi. O‘rta asrlardan Sharq mamlakatlari xalqlari musiqa madaniyatida (Eron, Avg‘oniston, hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Sharkiy Xitoy, (koshgar) Qozog‘iston) keng tarqalgan. Musiqashunoslikka oid ayrim manbalarda qadimda ushbu asbob O‘rta Osiyodan Yevropaga kirib borgan va 2 torli kamonli rubobdan skripka cholg‘usi yuzaga kelgan degan ma‘lumotlar uchraydi. Hozirgi vaqtda rubob cholg‘usining Z ta turi qo‘llaniladi: qashqar rubobi, afg‘on rubobi (yoki Buxoro) rubobi, pomir rubobi. Asosan, professional sozandalar tomonidan yakka soz sifatida va cholg‘u ansambllari tarkibida qo‘llaniladi.

Rubob cholg‘usini o‘rganishdan oldin uning tuzilishini bilish va uni to‘g‘ri ushlashni o‘rganish kerak. Buning uchun esa quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilinishi kerak.

1. Rubob kosasini ko'krakdan sal pastroqda, o'ng qo'lining bilagi orasida qattiq siqmasdan ushlab kerak.

2. Rubob dastasining chap qo'lining bosh va birinchi barmog'i orasida erkin tutish lozim. Rubob dastasi ushlangan paytda qo'lining bosh barmog'i ikkinchi barmoqning ro'parasida turishi shart. Aks holda uchunchi va to'rtinchi barmoqlarning pardalarini bosishi qiyinlashadi.

3. Rubob chalishni o'rganishda barmoqlar pardalardan uzoqlashmasligi zarur. Barmoqlar baland ko'tarilsa, tez templi musiqa asarlarini chalish qiyin bo'ladi. Rubob cholg'usini o'rganishdagi dastlabki mashg'ulotlarida qo'llar tez charchab qolishi mumkin, bunday holda qo'llarni pastga tushurib ularga bir oz dam berish kerak.

4. Rubobda yakka ijro etganda tik turish va gavnani to'g'ri tutish lozim. Rubobning qulokqari o'rnatilgan qismi ijrochining yelkasi bilan baravar turishi kerak. O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida, ansamblda o'tirib ijro etiladi.

Rubob torlarini chertib ovoz chiqarish uchun selulond, hayvon shoxi, ibonit kabi materiallardan tayyorlangan chertmak - mediator ishlatiladi. Rubobni chalishni o'rganishga yangi kirishganlarga rubobni selulondan yasalgan mediator bilan chalish tavsiya etiladi, bunday mediator bilan chalganda tovush mayin va silliq eshitiladi. Keyinchalik ibonitdan yasalgan mediator bilan ijro etish mumkin. Bu tovushni kuchli va kuchsiz chiqarishda yaxshi qo'l keladi.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zbek milliy cholg'u asboblari, cholg'u turlari, paydo bo'lishi, shakllanishi va takomillashuvi, ularda ijrochilikning nazariy va amaliy qonun-qoidalarini bilan tanishtirib borish, ularni cholg'u sozlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini, musiqiy ehtiyojlarini qondirish eng muhim vazifalardandir. Bu o'rinda maktablarda tashkil etiladigan badiiy havaskorlik to'garaklarining roli alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T;- Ma'naviyat. - 2008 yil.
2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan

birga quramiz. T.O'. 2017.

3.A.Asqarov. O'zbekistan tarixi (eng qadimgi davrdan eramizning V asrigacha). - T.: O'qituvchi, 1994. - 64 b.

4.F.M.Karomatov. Xalq musiqasi O'zbek musikasi tarixi. Tuzuvchi: T.Ye.Solomonova. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 27 34-6.

5.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - T.: Fan, 1993.-56 6.

6.H.Nurmatov. Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 1992.-3 6.

7.E.M.Fayzullaev. "Bo'lajak musiqasi o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish", (metodik qo'llanma). Toshkent 2008.